

INGLIZ TILIDA LEKSIK DERIVATSIYANING VOQELANISHI

Karimov Ihom Tursunovich

Samarqand Zarmed universiteti Tillar kafedrasida ingliz tili o'qituvchisi

Normurodova Sohiba Mallayevna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14031369>

Annotatsiya: Bu maqola ingliz tilidagi so'zlarning qanday derivatsiya bilan voqelalanishiga asoslangan bo'lib, bu orqali biz so'zlarni qanday tuzilishi haqidagi voqelikni bilib olamiz. Bundan tashqari, biz so'zlarni xususiyatlari hamda ularni grammatik asosdagi o'rni va ishlatilishiga doir ma'lumotlarni ham ushbu maqolada uchramiz va shuningdek bu sohada qanday olimlar izlanishlar olib borganligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar: derivatsiya, leksik ma'lumotlar, morfologiya, leksik ma'no va grammatika.

THE OCCURRENCE OF LEXICAL DERIVATION IN ENGLISH

Abstract: This article is devoted to derivation of the words in English which means that we can understand and are aware of how words are derived to use in this language. Moreover, there is a lot of information concerning systematic features of the words and their usage according to grammar units. We can also gain more data regarding scholars who worked in this field throughout their life.

Keywords: derivation, lexical resources, morphology, lexical meanings and grammar.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ ДЕРИВАЦИИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: Эта статья основана на происхождении английских слов, чтобы мы могли узнать, как в реальности образуются слова. Кроме того, в этой статье мы найдём информацию о характеристиках слов и их месте и употреблении в грамматической основе, а также получим информацию о том, какие учёные проводили исследования в этой области.

Ключевые слова: деривация, лексическая информация, морфология, лексическое значение и грамматика.

KIRISH

Shuni alohida qayd etish lozimki, so'z yasalihi muammosi tilshunoslik fanining keyingi taraqqiyoti davriga kelib tadqiqotlar kun tartibidagi asosiy va nufuzli masalalardan biriga aylandi. Bu masalaning grammatikada yoxud leksikologiyada o'rganilishiga ham aynan ana shu davrda chek qo'yildi. Bunda asosiy omil sifatida uni grammatikada (morfologiyada) o'rganganimizda so'z yasalihi bilan bog'liq leksik-semantik muammolar, leksikologiyada o'rganganimizda esa formal-struktur muammolar nazardan chetda qolib ketishi ko'rsatilmoqda. Ana shu bois so'z yasalihi masalasi grammatika ham, leksikologiyada ham o'rganilmasdan, tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida o'z maqomiga ega bo'ldi.

Albatta, bunday maqom so'z yasalihi hodisasining mukammal o'rganilishi uchun keng imkoniyat yaratdi. Tilshunoslik fanining bugungi taraqqiyoti davriga kelib ba'zi olimlar mazkur hodisani til sistemasining alohida sathlaridan biri sifatida talqin eta boshladilar, Masalan, B.N.Golovin bu masalaga ana shunday maqom bermoqda. Biroq bunday fikr va mulohazalarga qo'shilmayotgan tilshunoslar ham yo'q emas [1.2.].

ASOSIY QISM

Darhaqiqat, soʻz yasallishini tilning alohida sathi deb qaraydigan boʻlsak, u holda tilning boshqa sathlarida boʻlganidek, uning oʻziga tegishli birligi boʻlmogʻi lozim edi. Yasama soʻzlarni esa bunday maqomga ega deb boʻlmaydi. Chunki ular ham soʻz hisoblanganligi uchun tilning soʻz sathi birligi sanaladi. Ammo bu bilan soʻz yasallishi hodisasini tilshunoslik fanining mustaqil boʻlimi sifatida oʻrganish maqsadga nomuvofiq degan xulosaga kelish nooʻrin, deb oʻylaymiz. Chunki uning alohida sath maqomiga ega emasligi bunga monelik qila olmaydi. Biroq shuni ham aytish joizki, soʻz yasallishi hodisasini anʼanaga koʻra morfologiyada oʻrganish, bizningcha, katta xato hisoblanmaydi. Negaki, yasama soʻzlar ham tub soʻzlar singari, leksik maqomga ega boʻlgan birliklardir. Ammo ular yasallish tushunchasi bilan bogʻliq boʻlgani uchun ikkilamchi xarakterlidir. Tub soʻzlar esa bunday belgiga ega emas.

Shuning uchun yasama soʻzlarni tilshunoslikning alohida sohasi sifatida oʻrganish maqsadga muvofiq koʻrinadi. Bunday vaziyatda ularga xos boʻlgan formal-semantik, genetik, struktur-funksional aspektlarning barchasini mukammal yoritish imkoniyati vujudga keladi [3].

Aslini olganda, soʻz yasallishi hodisasi leksikologiya bilan ham, morfologiya bilan ham, sintaksis bilan ham uzviy aloqadordir. Uning bunday xususiyati tilshunoslikning barcha sohalari bilan yonma-yon turishidan dalolat beradi. Biroq soʻz yasallishi hodisasi ikkilamchi xarakterli boʻlgani uchun ulardan oʻziga xos yoʻsinda farq qiladi. Soʻz yasallishi bilan bogʻliq bunday masalalarning barchasini Ye.S. Kubryakova mukammal yoritib bergan va shu bilan birga, soʻz yasallishi jarayonini shakllantiruvchi asos, yasovchi, hosila kabi tushunchalar izohini ham atroflicha tavsiflagan [1]. Unga koʻra asos deb yasama soʻz tarkibidan barcha grammatik vositalarni olib tashlangandan keyin qolgan qismini tushunmoq kerak. Boshqacha aytganda, fleksiyalardan holi qism asosi tashkil etadi, Shu bois faqat oʻzak morfemaning oʻzi asos sanaladi va u hosila belgilariga ega boʻlmaydi.

Soʻz yasallishida affiks muhim vazifa bajaradi, zero, uning yordamida yangi soʻz yasalladi. Biroq affiks soʻz asosiga turlicha maqsadga qoʻshilishi mumkin. Agar u soʻz oʻzgartiruvchi xarakterli boʻlsa, yangi soʻz yasallmaydi, balki forma yasalladi. Affiks vositasida yangi soʻz yasallandagina soʻz yasallishi hodisasi shakllanadi. Bunday affiks derivatsion vazifa bajaradi va shu bois uni yasovchi deb atashadilar.

Soʻz yasallishi bilan bogʻliq ishlarda derivatsion nufuzga ega boʻlgan affiksni formant deb ham atash mumkin. Ayni paytda soʻz yasallishi asosi yasovchi formant va hosila struktura haqida mulohaza yurita olamiz. Albatta, formantning soʻz yasallish asosiga qoʻshilishi jarayoni har doim ham bir xil, yaʼni mushtarak modellarni vujudga keltirmaydi.

Bu jarayonda modellashtirish hodisasi roʻy beradi. Masalan, muayyan bir affiks yordamida kasb-hunar otlari yasalsa, boshqa bir affiks qurol otlarini, yana boshqa biri esa yasama sifatlarning muayyan turini va hokazolar shakllantiradi. Ana shu jarayonda soʻz yasallishida mushtaraklik kuzatilishi yagona model doirasida vujudga keladi va buni soʻz yasallishi tipi deya ataymiz.

Maʼlum bir modelga asoslanadigan soʻz yasallishi tipi haqida dastlab chex olimlari fikr bildirgan edilar. Chex tilshunosi N.A.Yanko Trinitsoy bu haqda quyidagilarni taʼkidlaydi: “Model - bu yasama soʻzning kategorial xarakteristikasi va uning qaysi affiks vositasida vujudga kelishini koʻrsatib beruvchi yasama soʻzning struktur sxemasidir” [4].

Tabiiyki, soʻz yasallishi hodisasi har bir tilning oʻz ichki imkoniyatlari doirasida shakllanadi. Lekin shunday boʻlishiga qaramasdan, tillar oʻrtasida bu jihatdan oʻxshashlik boʻlishi ham mumkin. Masalan, affiks vositasida yangi soʻz yasallishi hodisasi koʻp tillarda kuzatiladi.

Bundan tashqari, tillarda affiks ishtirokisiz faqat o'zak morfemani taqozo etuvchi so'zlar ham yasama bo'lishi mumkin. Bunga ingliz tilida morfemalarga bo'linmaydigan konversiya usulida yasalgan so'zlar misol bo'lishi mumkin (love (sevgi) ot, love (sevmoq) fe'l). Biroq leksik derivatsiyada boshqa vositalarga qaraganda affiksatsiya usuli ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham aytish kerakki, yasama so'z o'zining mazmuniy salmog'iga ko'ra so'z birikmasi va hatto gapga tenglashishi ham mumkin. Amerika strukturalizmi vakillaridan biri R.Liz, buni qo'shma so'zlar misolida ko'rsatib berishga harakat qiladi. R.Liz bunda qo'shma so'zlarning nominativ birlik ekanidan kelib chiqib, ularning shu maqomi transformatsion o'zgarishdan keyin ham saqlanib qolishini ta'kidlaydi.

Masalan: housekeeper (xonadon xizmatkori) - He keeps a house (U uyning tozaligiga qaraydi); girl - friend (dugona) = The friend is a girl (друг - девушка).

XULOSA

Ko'rinadiki, R.Liz qo'shma so'zlarning yasaliq maqomi jumla tarkibida ham shu holatda saqlanishini ko'rsatib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Biroq, bizningcha, keltirilgan misollarda bu mulohaza o'z isbotini topgan deyish qiyin, Chunki berilgan qo'shma so'zlar strukturalari (housekeeper, girl-friend) o'zgarishsiz qo'llanmagan. Umuman olganda, R.Lizning g'oyasi bu o'rinda asossiz emas, Yasama so'zlarning, shu jumladan, qo'shma so'zlarning ham nutqda qo'llanilishi bilan bog'liq muammolar talqinini berish ilmiy jihatdan o'ziga xos ahamiyat kasb yetishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кубрякова Е.С. Словообразование // Общее языкознание. Внутренняя структура языка - М. 351.
2. Хайруллоев Х. Til birliklarining pog'onali munosabati. - Toshkent, 2008, 19-bet.
3. Лопатин В.В., Улуханов И.С. Словообразование // Основы построения одиетельной мматики современного рууского литературного языка - М.. 1966.
4. Daksti M, Tivoteni slov vd. Cestine Teoriodvozaváni slov Praha, 1962.
5. Normurodova Sokhiba Mallaevna the main indicators of the communication culture of a medical worker <https://bestpublication.org/index.php/jaj/issue/view/102>
6. Normurodova Sohiba, Aitmuratova Perkhan: THE ROLE OF LATIN TERMS IN MEDICINE. SSN2277-3630 (online),PublishedbyInternational journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., underVolume: 12Issue:10inOctober-2023 <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1978>
7. Sohiba, N., & Perkhan, A. (2023). The role of latin terms in medicine. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(10), 1-3.
8. Zafar, M., & Sohiba, N. (2023). Kundalik turmushda keng qo'llanilishda bo'lgan suyuqliklarni ifodalovchi dori shakllari haqida chet el ilmiy nashrlaridan olingan fikrlar. Involta Scientific Journal, 2(5), 199-204.
9. Soxiba, N. (2023). Syntactical structure of binary tautologisms. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(11), 53-56.
10. Mallaevna, N. S., & Khalid, A. (2023, November). TOPIC CHEMICAL TERMINOLOGY OF SALTS. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 226-229).
11. Mardanovich, M. Z., Aliaskarovna, S. U., Kenjaevna, B. M., Genjebaevna, A. P., & Salimovich, S. B. (2021). Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems Writing Recipes. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 5341-5352.

12. Mukhamadiyeva, M., & Sharipov, B. (2022). LATIN AS THE MAIN LANGUAGE OF MEDICINE. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 337-339.
13. Salimovich, S. B. (2022). Studies of Reciprocity in Linguistics. Eurasian Scientific Herald, 8, 221-224.
14. Шарипов, Б. С. (2022). TIL BIRLIKLARINING NUTQDA FAOLLASHUVI HAQIDA. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(1).
15. Sharipov, B. (2023). SOME CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF CLINICAL TERMS IN LATIN. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 477-479.
16. Salimovich, S. B. (2022). RECIPROCAL SYMMETRY AND ITS GRAMMATICAL INDICATIONS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(12), 129-131.
17. Mardanovich, M. Z., & Salimovich, S. B. Auditoriyadan tashqari ta'lim-tarbiyaga maqsadli, tizimli yondashish. In Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 103. Цель конференции–знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных (p. 455).
18. Nasimjanovna, K. F., & Salimovich, S. B. (2023). NAMES OF DISEASES AND THEIR USE IN CLINICAL TERMINOLOGY. Journal of Universal Science Research, 1(6), 469-474.
19. Isroilova, M., & Sharipov, B. (2023). SOME OBSERVATIONS ON LATIN PRONUNCIATION AND SPELLING. Science and innovation in the education system, 2(7), 127-129.
20. Махмудов, З. М., & Шарипов, Б. С. Талабаларнинг фанни яхши ўрганишлари учун психо–эмоционал таъсир этишда халқ мақол ва маталларидан тўғри фойдаланиш (лотин тили ва тиббий терминология фани мисолида). Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 112.
21. Bektosheva, E. D., & Salimovich, S. B. (2023). LATIN AND GREC TERMINOLOGY IN THE PROCESS OF STUDY OF OPERATIVE SURGERY. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 1(6), 66-72.
22. Mardanovich, M. Z., & Salimovich, S. B. Auditoriyadan tashqari ta'lim-tarbiyaga maqsadli, tizimli yondashish. In Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 103. Цель конференции–знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных (p. 455).
23. Salimovich, S. B. (2024). USE OF LATIN TERMINOLOGY IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A DOCTOR (BASED ON THE MATERIAL OF AN OUTPATIENT'S MEDICAL CARD). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(1), 276-281.
24. Salimovich, S. B. (2024). ANATOMICAL, PHARMACEUTICAL AND CLINICAL TERMINOLOGY IN LATIN CLASSES. Journal of Universal Science Research, 2(1), 483-495.
25. Mallaeva, N. S., & Khalid, A. (2023, November). TOPIC CHEMICAL TERMINOLOGY OF SALTS. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 1, No. 5, pp. 226-229).